

O'ZBEKISTON VA AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI O'RTASIDA XALQ DIPLOMATIYASINI RIVOJLANTIRISHDA ILMIY HAMKORLIKLER

Boysariyev Muhriddin Muzaffar o'g'li
"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti
07.00.01 - yo'nalishi I bosqich doktoranti
E-mail: muxboysariyev1999@gmail.com
Te.l: + 998902268599

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda iqtisodiy salohiyat va ilmiy-texnik taraqqiyot sohalarida dunyoda yetakchi o'rinni egallagan davlatlar mayjud. Biroq, ilm-fanning shu qadar chuqurlashgani va uning amaliy qo'llanilishi shu darajada kengayganki, hech bir mamlakatda olimlar barcha yo'nalishlarni to'liq qamrab ola olmaydi. Har qanday muammoni boshqa soha vakillaridan ajralgan holda yechish imkoniyati tobora kamayib bormoqda. Chunki muammolar ummoni cheksiz, ularni hal qilishga xizmat qiluvchi fikrlar va yondashuvlar esa undan-da rang-barangdir. Shu sababli olimlar o'rtasida doimiy fikr almashinushi va ilmiy hamkorlikka intilish doimo muhim o'rinni tutgan. Aynan shu tamoyil AQSh va O'zbekiston ilm-fan ahli o'rtasidagi hamkorlikda, hamda xalq diplomatiyasining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kalit so'zlar: ilmiy hamkorlik, do'stlik jamiyati, AQSh universitetlari, ACCELS dasturi, xalq diplomatiyasi, ilmiy seminarlar.

SCIENTIFIC COOPERATION IN THE DEVELOPMENT OF PUBLIC DIPLOMACY BETWEEN UZBEKISTAN AND THE UNITED STATES OF AMERICA

ABSTRACT

There are countries with economic potential and a leading position in the world in the field of scientific and technical development, but today science has grown so deep that the scope of its applications has expanded so much that scientists in no country can cover all areas. There are not enough options for solving all problems in isolation from colleagues. And the thoughts and games of the people of the world are even more colorful. Therefore, this principle, which has always been strong to strive for regular mutual exchange of views and cooperation between scientists, has also made a significant contribution to the development of public diplomacy to the people of science of the United States and Uzbekistan.

Keywords: Scientific Cooperation, Friendship Society, US universities, ACCELS Program, Public Diplomacy, scientific seminars.

НАУЧНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В РАЗВИТИИ НАРОДНОЙ ДИПЛОМАТИИ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И СОЕДИНЁННЫМИ ШТАТАМИ АМЕРИКИ

АННОТАЦИЯ

Есть страны, обладающие экономическим потенциалом и занимающие лидирующие позиции в мире в области научно-технического развития, но сегодня наука настолько углубилась, что сфера ее применения расширилась настолько, что ученые ни в одной стране не могут охватить все области. Вариантов решения всех проблем в отрыве от коллег недостаточно. А мысли и игры людей по всему миру еще более красочны. Поэтому этот принцип, который всегда был силен в стремлении к регулярному взаимному обмену мнениями и сотрудничеству между учеными, также внес значительный вклад в развитие публичной дипломатии в отношении людей науки Соединенных Штатов и Узбекистана.

Ключевые слова: Научное сотрудничество, Общество дружбы, университеты США, Программа ACCESS, публичная дипломатия, научные семинары.

KIRISH

Bugungi davrda insoniyat sivilizatsiyasining taraqqiyot bosqichida fan va texnikaning ahamiyati barchaga ayon. Biroq, ertangi kun bizga qanday yangiliklar olib kelishini tasavvur qilish ko‘pchilik uchun hali ham mushkul. Aslida esa misli ko‘rilmagan sur’atlar bilan rivojlanayotgan ilmiy-texnik taraqqiyot inson hayot tarziga tobora chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda va global jarayonlarga ta’siri vaqt o‘tishi bilan yanada kuchayib bormoqda.

Bu kabi yorqin misollarda mustaqillikdan keyin 1995 - yil 10 - mart kuni taniqli fizik O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, Beruniy nomidagi davlat mukofoti sovrindori, fizika-matematika fanlari doktori, professor Rahim Bekjonov o‘zbeklardan birinchi bo‘lib “Nyu York akademiyasi” a’zoligiga saylandi. Nyu York Fanlar akademiyasi o‘zbekistonning boshqa olimlarni ham oliy darajadagi olimlar deb baholanadi. Ular Rossiya Tibbiyat fanlari doktori kardiolog, mudiri O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi akademigi Ibrohimov, Respublika tibbiyat fanlari doktori, respublika ilmiy markazi rahbari Vosit Vohidov, zoologiya instituti professori Mirabdullayev shu kabilarni Nyu York akademiyasining haqiqiy

a'zosi deb bundan tashqari Majidov nomini "dunyoning yetuk insonlari" xalqaro ma'lumotnomaga kiritildi. Qadimiy, betakror va hamisha navqiron o'zbek madaniyatining ham Amerika Qo'shma Shtatlarida shunday fidoyi elchilari borki, ular haqida hikoya qilish kishiga ajib bir mamnuniyat baxsh etadi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida faoliyat olib borayotgan olimlarning o'zbek tilirivojiga qo'shgan hissalar

T/r	Olimning F.I.O	Qilgan ishlari
1	Ch. Bijer	"Turkiy tillarda so'z yasalishi"
2	N.Poppe	"O'zbek gazeta tilidan qullanma"
3	A.Raun	"O'zbek tilining asosiy kursi"
4	Eluard Olpvort	"Hozirgi o'zbeklar"
5	H.Pakson	"Markaziy Osiyo o'qish kitobi"
6	Beatrisa Forbers Manz	"Amir Temur davlati va uning parvozi"
7	Ilza Laude	"Turkiy tillarda rang otlari"

1948 yila AQShda "Turkiy tillarda so'z yasalishi" nomli kitob chop etigan edi. Keyinrok Ch. Bijer "o'zbek tilining strukturaviy grammatikasi" kitobini, N.Poppe "o'zbek gazeta tilidan qullanma", A.Raun "O'zbek tilining asosiy kursi" darsliklarini tayyorlab, chop ettirgan. O'zbek tilida, umuman, O'zbekistonga qiziqish Amerikada qay darajala ekani haqida Indiana universiteti professori X.Ismatullayevning ikki jilli, 1380 sahifadan iborat o'zbek tili darsli ham yaxshigina tasavvur beradi.

O'zbekiston madaniyati va tarixini o'rganish borasida butun dunyola katta e'tibor qozongan olimlardan biri, Nyu - York shahridagi Kolumbiya universiteti professori Eluard Olvortdir. U ko'p yillik ilmiy izlanishlarining samarasi bo'lgan "**Hozirgi o'zbeklar**" nomli yirik tadqiqotini 1990 - yilda e'lon qildi. To'rt yuz sahifadan iborat bu kitob Stanford universiteti nashriyotida bosilib chiqdi. Janob Olvortning o'zbek adabiyotidan qilgan tarjimalari ham e'tiborga loyiqlidir. Xususan, Abdurauf Fitratning "**Qiyomat**" va "**Shaytonning tangriga isyon**" kabi asarlarini inglizchaga o'girib, nafaqat amerikalik, balki dunyodagi boshqa ko'plab mamlakatlardagi kitobxonlar XX asr o'zbek adabiyoti va madaniyatining asoschilaridan biri bulgan Fitrat ijodi bilan tanishtirdi.

AQSHning yetakchi ilm markazlaridan biri hisoblanadigan Harvard universitetining professori H.Pakson O‘rtta Osiyo xalqlari tarixi bilan shug‘ullanadi. Uning “**Turkiy xalqlar tarixi**”, “**Markaziy Osiyoning yangi dostonlari**” , “**Alpomish**” va boshqa tadqiqotlari materiallarga boyligi bilan ajralib turadi. H.Pakson 1994 - yilda Markaziy Osiyo tarixiga oid dolzarb maqolalarini to‘plab, zarur bo‘lganlarini inglizchalahtirib, Nyu-Yorkda “**Markaziy Osiyo o‘qish kitobi**” majmuasini chop ettirdi. Tarixni yangidan kashf etish ruhi bilan sug‘orilgan ushbu kitobga o‘zbek adib va olimlarining ham maqolalari kiritilgani diqqatga molikdir.

Beatrisa Forbers Manz xonimning Amir Temur davri tarixi haqildagi ko‘plab maqolalari, chukur mulohazalarga boy tadqiqotlari ilmiy jamoatchilikka yaxshi ma’lum. Olimaning Kembrij universiteti nashriyotida nashr etilan “Amir Temur davlati va uning parvozi” (1989 - y.) nomli asari jahon temurshunoslikka qo‘shgan salmoqli hissa bo‘ldi.

Darvoqe, 1996 yilla Amir Temur tavalludinini 660 yilligiga bag‘ishlab Toshkentda o‘tkazilgan “**Amir Temur siymosi va uning jaxon tarixila tungan o‘rnii**” mavzuidagi yirik xalqaro anjumanda amerikalik olimlar R. Nelson, J. Gross, SH. Pollaklar ham ishtirok etib, Sohibqiron hayoti va faoliyatining hayotining ayrim qirralari haqida ma’ruza qildilar.

Madaniyatimiz, adabiyotimiz, tilimizning Amerika Qo‘shma Shtatlardagi jonkuyar targ‘ibotchilaridan biri haqli ravishda taniqli turkshunos olma, O‘zbekiston Milliy universitetining faxriy doktori Ilza Laude xonim hisoblanadi. Ilzaxonim nafaqat Amerika Qo‘shma Shtatlarida, balki butun jahonda milliy madaniyatimiz, adabiyotimiz va tilimizni targ‘iboti tashviq etish borasida sadokat bilan qizg‘in faoliyat ko‘rsatib kelgan. Vashington universitetining doktor I.L.Sirtautas rahbarligida muntazam o‘tkazib kelinayotgan “**Yozgi dasturi**” har yili AQSh hamda dunyoning turli mamlakatlaridan yig‘ilgan ko‘pdan – ko‘p yoshlarga madaniyatimiz bilan tanishish, tilimizni o‘rganish imkoniyatini yaratmoqda.

Tilshunos Ilzaxonim 1958 - yilda Germaniyaning Hamburg universitetida “**Turkiy tillarda rang otlari**” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan. Bu qiziqarli mavzuni yoritish jarayonida u o‘zbek tili tarixi va adabiyotini chuqr o‘rgangan. 1959 - yilda Ilzaxonim Amerika Kushma Shtatlariga ko‘chib kelib, avval Pensilvaniyadagi Dallas shahri kollejlaridan birida, so‘ng Indiana universitetida ishlagan. Bu yerda talabalarga o‘zbek tilidan saboq berish bilan shug‘ullangan. Faqat o‘zbek tili haqida umumiyligi ma’lumot beruvchi darslar bilan cheklanmay, maxsus guruhlar tuzib, amerikalik yoshlarga o‘zbek tilini ham o‘rgata boshlagan. Tilimizning jozibasini targ‘ib etishda bu ayol hamon xormay - tolmay mehnat qilgan.

Ilzaxonimning tarjimonlik faoliyati ham e'tiborga loyiq muhim yo'naliishlardan biridir. 1984-yilda u o'zbek xalq og'zaki ijodining nodir namunalaridan hisoblangan qirq yetti ertakni nemis tiliga tarjima qilib, nashr ettirgan. "O'zbek ertaklari" nomi ostida chop etilgan ushbu salmoqli, qariyb uch yuz sahifalik asar nafaqat o'zining badiiy bezagi, balki xalqimizning boy madaniy merosini xorijiy kitobxonlar orasida targ'ib qilishdagi roli bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur kitobga Ilzaxonimning o'zi so'zboshi yozgan va matnga tarjimon tomonidan tayyorlangan sharhlar ilova qilingan. To'plamga "Kenja Botir", "Qilich Qora", "Tohir va Zuhra", "Zorliq va Munglik" singari mashhur ertaklar bilan bir qatorda, "Go'ro'gli", "To'rabexonim" haqidagi hikoyalar ham kiritilgan.

"O'zbek ertaklari" Germaniya kitobxonlari tomonidan katta qiziqish bilan kutib olingan va natijada 1986-yilda ushbu nashr ikkinchi bor chop etilgan. Bu holat Ilzaxonimning tarjimon sifatidagi mehnati nafaqat o'zbek adabiy merosini keng ommaga tanitishga, balki madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga ham xizmat qilganini ko'rsatadi.

1980 - yilla Ilzaxonimning Amerika universitetlarida o'zbek tilini o'rganuvchilarga mo'ljallab yozilgan "**O'zbek adabiy tili xresmateriyasi**" nashr etildi. 254 sahifalik bu kitobga Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, O'lmas Umarbekov va boshka adiblarimizning hikoyalari kiritigan. Ilzaxonim xresmateriyani bat afsil izohlar bilan taminlagan idomatik birikmalar, o'zbekona iboralarga chiroyli tushuntirishlar bergen. Kitob, mutaxassislar fikricha, AQSHda xolis niyat, o'zbek tili va alabiyotiga muhabbat bilan yaratilgan eng ajoyib qullamadir.

Bu kabi ilmiy hamkorliklar keyingi yillarda ham to'xtab qolgani yo'q. 1996 - yil 13 dekabr O'zbekiston Fanlar Akademiyasi bioorganik kimyo institutining ikki peshqadam olimlari, fan doktorlari Tohir Oripov va Baxtiyor Ibrohimov AQShda ilmiy safarda boldi. Ular Nyu Yorkning peshqadam kimyo laboratoriyasiga tashrif buyurdi. Muassasaga nomi dunyoga taralgan taniqli professori Sheldon Segal rahbarlik qildi. Uning laboratoriyasidagi boshqa xodimlar singari amerikalik professor go'zada hozirda ayniqsa chigitlarda boladigan moddalarning o'rganish bo'yicha toshkentlik hamkasblari ishlariga qiziqish bildirdi. Nyu Yorkda hamkorlik to'grisida o'zbek kimyogarları faoliyatini tegishlicha moliyalashtirish ko'zda tutuvchi shartnomasi tuzildi. Ko'p o'tmay Toshkent institutiga Rokfeller jamg'armasidan 50000\$ mablag' ajratildi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida hamkorlik aloqalari olib borgan o'zbek olimlari

T/r		
1	Respublika tibbiyot fanlari doktori, respublika ilmiy markazi rahbari Vosit Vohidov	"Nyu York akademiyasi" a'zolik
2	O'zbekiston Fanlar Akademiyasi bioorganik kimyo institutining ikki peshqadam olimlari, fan doktorlari Tohir Oripov va Baxtiyor Ibrohimov	Nyu Yorkda o'zbek kimyogarlari faoliyatini tegishlicha moliyalashtirish ko'zda tutuvchi shartnoma
3	O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Iqtisodiyot instituti bo'limi rahbari Ibrohim Iskandarov	AQShning "Yil kishisi" (Man of the Year) faxriy unvoni bilan taqdirlangan
4	O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, Beruniy nomidagi davlat mukofoti sovrindori, fizika-matematika fanlari doktori, professor Rahim Bekjonov	"Nyu York akademiyasi" a'zolik
5	O'zbekiston Respublika ilmiy markazi rahbari Vosit Vohidov	"Nyu York akademiyasi" a'zolik
6	Zoologiya instituti professori Mirabdullayev	"Nyu York akademiyasi" a'zolik

Taniqli olim, iqtisod fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Iqtisodiyot instituti bo'limi rahbari Ibrohim Iskandarov 1998-yilda AQShning "Yil kishisi" (Man of the Year) faxriy unvoni bilan taqdirlangan. Ushbu unvon unga Amerika Biografiya Instituti tomonidan jahon miqyosida O'zbekistonning ma'naviy salohiyatini rivojlantirishga qo'shgan ulkan hissasi uchun berilgan.

Professor Iskandarov O'zbekiston iqtisodiyoti va uning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi masalalariga bag'ishlangan 400 dan ortiq ilmiy ish muallifi hisoblanadi. Uning ilmiy merosi nafaqat respublikada, balki xalqaro miqyosda ham iqtisodiy tafakkurning rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Bu kabi ilmiy hamkorliklar qatoriga asr oxirining 23 – avgust kunidagi Buxoroda "**Yadro fizikasining hozirgi zamondagi muammolari**" mavzusida

uchunchi xalqoro anjuman bo‘lib o‘tdi. Unda 20 mamlakatning yetakchi ilmiy markazlarida 190 dan ortiq olim, jumladan, AQShning 12 nafar taniqli olim va tadqiqotchilari ishtirok etdilar.

Amerika Qo‘shma Shtatlari va O‘zbekistonning xalq diplomatisida ilmiy sohani rivojiga hissa qo‘shib kelayotgan yana bir nodavlat tashkilotlardan biri bu ACCELS hisoblanib, o‘zbek yoshlari uchun katta imkoniyatlarni yaratib berayotgan edi. 2002 – yil 25 - aprelda O‘zbekistonda 10 yil muqaddam xalqaro ta’lim bo‘yicha asosiy amerika kengashi nufuzli xalqaro tashkilot vakolatxonasi ochildi. O‘tgan yillar ichida asosiy jurnalistlari O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta’ limi Vazirligi bilan birgalikda mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha milliy dasturni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan butun bir dastur amalga oshirish oshirgan edi.

Ta’lim sohasidagi hamkorlik doirasida amalga oshirilgan “Sheriklar dasturi” (Partnerships Program) o‘zining dolzarbligi va samaradorligi bilan alohida ahamiyatga ega bo‘lgan bosqich hisoblanadi. Mazkur tashabbus o‘quvchilarga va talabalariga amerikalik tengdoshlari bilan bevosita aloqalarni yo‘lga qo‘yish, fikr va tajriba almashish imkoniyatini taqdim etdi.

Ayniqsa, 2002–2003 o‘quv yili davomida AQSh homiyligida ishlab chiqilgan 10 ta ta’lim dasturi doirasida hamkorlik faol rivojlandi. Bu dasturlar doirasida uch bosqichli tanlov sinovlarini muvaffaqiyatli topshirgan eng iqtidorli talabalar tanlab olinib, ACCELS (American Councils for International Education) tomonidan muvofiqlashtirilgan MUSKIE dasturi orqali AQShning yetakchi oliy o‘quv yurtlarida tahsil olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Dastur menejment, yurisprudensiya, jurnalistika, lingvistika kabi 20 ga yaqin yo‘nalishlarni qamrab olib, jami 100 nafar o‘zbekistonlik talabaga xorijda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallash imkonini yaratdi. Ushbu tashabbus, shubhasiz, mamlakatimizda yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoniga ijobjiy ta’sir ko‘rsatgan.

2002-yil 12-oktabr kuni Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti huzuridagi “Ma’rifiy tarmoq” loyihasining resurs markazida O‘zbekiston–Amerika Akademiyasining rasmiy ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Ushbu tadbir O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, “Ustoz” jamg‘armasi, AQShning Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) hamda Amerika Qo‘shma Shtatlari elchixonasi bilan hamkorlikda tashkil etildi.

O‘zbekiston – Amerika Akademiyasi O‘zbekiston ta’lim tizimini takomillashtirish, xususan oliy ta’lim muassasalari talabalari va professor-o‘qituvchilari malakasini oshirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy va resurs markazi sifatida faoliyat yuritish uchun rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazildi.

Mazkur tashabbus ikki tomonlama ilmiy-ta'limiy hamkorlikni mustahkamlash, zamonaviy bilim va texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish orqali O'zbekistonning inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ilmiy aloqalarning keyingi bosqichi Nyu-Jersi shtatidagi Rechi universiteti ilmiy xodimlaridan bir guruhi R. Shreders nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik ilmiy-tadqiqot instituti tashrif buyurishdi. Sabzavotchilik, bog'dorchilik bilan shug'ullanuvchi amerikalik hamkasblar qo'shma loyihalari amalga oshirishda tajriba almashish va hamkorlik qilish dasturi bo'yicha O'zbekistonni keldi, ikkala mamlakat bundan keyingi hamkorlik masalalarini muhokama qildi.

AQSh va O'zbekiston o'rtaidagi xalq diplomatiyasi asoslarini tashkil etuvchi muhim tashabbuslardan biri bu Sietl va Toshkent shaharlari o'rtaida faoliyat yurituvchi Assotsiatsiya tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy va madaniy hamkorlik loyihalaridir. Ushbu hamkorlik nafaqat ikki davlat o'rtaidagi madaniy aloqalarni mustahkamlash, balki ta'lim va ilm-fan sohalarida ham o'zaro tajriba almashish imkonini yaratdi.

2008-yilda AQSh elchixonasi qoshida tashkil etilgan Ma'rifiy maslahat markazi (EducationUSA Advising Center) hamda CERT (Center for Education and Research in Technology) ilovasining ko'magida Toshkent va Sietl kabi birodarlashgan shaharlar o'rtaidagi aloqalarning 35 yilligini nishonlash munosabati bilan muhim tadbir o'tkazildi. Ushbu tadbir doirasida Sietlning markaziy jamoatchilik kolleji bilan raqamli formatda videokonferensiya tashkil etildi.

Mazkur tashabbus raqamli diplomatiya va transmilliy hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lib, ta'lim sohasida global muloqotni mustahkamlash yo'lida amaliy qadam bo'lib xizmat qildi.

Milliy anjuman kollej xalqaro qabul hay'ati dekani Andrey Inelini, uning hamkasbi janob Fransuani va Sietl Toshkent birodarlashgan shaharlar assotsiatsiyasi prezidenti Den Petterson Toshkentning mahalliy jamoatchiligi vakillari talabalarni o'quvchilardan jami 45 nafar odam bilan bo'lib o'tdi. Ikki shahar qardoshligi yilligini nishonlash maqsadida Sietlda "Sietl va Toshkent"dan almashuvi bo'yicha dasturning barcha bitiruvchilari uchrashuvi otkazildi, elchixonada amerika filmi "**Sietldagi bedor odam**" film namoyish etildi va Sietlning rasmiy delegatsiyasi Toshkentga tashrif buyurdi.

Ikki davlat o'rtaidagi ilmiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishda Amerika Qo'shma Shtatlarida faoliyat yuritayotgan nodavlat fondlar muhim rol o'ynadi. Jumladan, sobiq Sovet Ittifoqi mamlakatlarida ilmiy tadqiqot loyihalarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga ixtisoslashgan SRDF (Civilian Research and

Development Foundation — Fuqarolar tadqiqotlari va taraqqiyoti Amerika fondi) ushbu jarayonning muhim ishtirokchilaridan biri bo‘ldi.

Mazkur fond vakillarining O‘zbekistonga tashrifi davomida qator istiqbolli loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi. Jumladan, tashrifdan ko‘zlangan asosiy maqsadlar qatorida havo sifatini yaxshilash, tibbiyat sohasida zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish hamda raqamli video displeylar asosida yangi avlod uskunalarini yaratishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot loyihalarini yo‘lga qo‘yish bor edi. Ushbu tashabbuslar O‘zbekiston ilmiy salohiyatining oshishiga, innovatsion g‘oyalar va texnologik yechimlarning mamlakat ichki bozoriga tatbiq etilishiga xizmat qilmoqda.

Faol loyihalarni amalga oshirish uchun fond rahbari Stenven Bergan va Professor Julining 4 ta loyihasi bilan joyning o‘zida tanishtirish uchun 27 - maydon uchinchi yilgacha Toshkent va Buxoroga bordi. 1995 - yilda AQSh Kongressi asos solgan fond hukumatining moliya zaxirasidan ilmiy tadqiqotchilik loyihalaridan loyihalarini ro‘yobga chiqarish uchun foydalilanildi. Grantlar taqdim etildi, texnik yordam korsatdi. Fond O‘zbekistonda asosan suv zaxiralari va qishloq xo‘jaligi sohalarida yangi loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Fond O‘zbekistonda atrof-muhitni kengroq tadqiq qilishga intilmoqda va O‘zbekiston hukumati bilan bo‘yicha qo‘shma loyihalarni muhokama qilmoqda edi.

Yangi asr boshlarida boshlangan ilmiy hamkorlik loyihalari izchil davom etdi va o‘z mazmun-mohiyatini yo‘qotmadi. Jumladan, 2010-yil mart oyida Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘yicha yetuk amerikalik mutaxassislarning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi amalga oshirildi. Tashrif doirasida olimlar mamlakatda o‘n kun davomida faoliyat olib borib, bir qator ta’lim va davlat muassasalarida uchrashuvlar va seminarlar tashkil etdilar.

Ushbu tashrif chog‘ida oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, davlat xizmatchilari hamda talabalari uchun O‘zbekiston va Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘rtasidagi hozirgi munosabatlar, ularning istiqbollari, shuningdek, ikki tomonlhma ilmiy va madaniy hamkorlik yo‘nalishlarida ma’ruzalar o‘qildi va amaliy muloqotlar o‘tkazildi.

Mazkur tadbirlar ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro anglashuv va akademik aloqalarni mustahkamlash, shuningdek, zamonaviy xalqaro siyosiy jarayonlarga oid bilimlarni keng jamoatchilikka yetkazish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etdi.

Doktor Rojer Kangas Vashingtondagagi Milliy tadqiqotlar markazi professori va Jorjtavn universiteti Rossiya va Yevrosiyo tadqiqotlarining taklif etilgan professori lavozimlarida faoliyat yuritgan. U o‘nlab kitoblar va O‘zbekistonda siyosiy

madaniyati siyosiy partiyalarning bagishlangan maqollar maullifi hisoblangan. U tashrifi chog‘ida jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida tadbir taqdimotlar o‘tkazdi. Tashrif so‘ngida jurnalistlar bilan AQSh hukumati moliyalashtirilgan dasturlarning sobiq ishtirokchilari bilan uchrashdi.

2011 - yil 26 - yanvar kuni Simitson instituti delegatsiyasi O‘zbekistonda boldi. O‘zbek hamkasblari bilan birgalikda ularni muzey ishi imkoniyatlarini oshirish va rivojlantirish bo‘yicha bir necha seminar o‘tkazildi. O‘zbekiston muzeylarini ko‘zdan kechirar ekan amerikalik mutaxassislar san’at asarlarini tamirlash va asrash bo‘yicha to‘plangan ish tajribalari bilan tanishdilar. AQSh delegatsiyasi ham qog‘oz va pergamentdan yasalgan arkefatlarni saqlash bo‘yicha O‘zbekistonning 200 nafar xodimi bilan bilimlarni o‘rtoqlashdilar.

O‘sha yilning 21 - fevralda Nyu Yorkda birinchi marta o‘zbek tilida chop etiladigan “Vatandosh” gazetasining ilk namunasi olim yuzini kordi, bahor bayrami arafasida mazkur gazeta nashrlari uning 50 - sonini bosmadan chiqardi. Son Navro‘z bayramiga bag‘ishlangan edi yangi ro‘znama muassasani yorqinlik biznesmen Farhod Sultonov chiqargan ro‘znama 5 ming nusxadan iborat bo‘lib, bir nusxasi naqd 14 betni egallagan birinchi soni 50 nusxadan ko‘ra hajmdorliga, mazmundorligini va o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

2012 - yilga qadar O‘zbekiston Amerika ilmiy-ma’rifiy hamkorligi bugungi kunda mutaxassislar muntazam almashunuvarlar davom etdi. Faqat 2007 - 2010 yillarning o‘zida O‘zbekiston ilmiy muassasalaridan 74 nafar xodim AQShdagi turli tadbir va qo‘shma tadqiqot ishlarini ishtirokchilariga aylandi. Ularning amerikalik hamkasblar O‘zbekistonda bo‘lib otgan xalqaro siminarlar va anjumanlarda faol ishtirok etdi. O‘zbekiston ilmiy tashkilotlari va olimlarning fuqarolik tadqiqotlarida taraqqiyot amerika fondini dasturlarida ishtirok etgan butun vaqt davomida 1996 - yildan buyon 8.1 million AQSh dollar miqdordagi 154 grant ajratiladi. 2013 – yilgi ma’lumotga qaraganda AQShning O‘zbekistondagi elchisi Jorj Karolning ma’lumot berishicha, ayni paytga kelib, qarib 10 ming o‘zbekistonlik talaba, olim, diplomat, musiqachi, pedagog, harbiy hizmatchi, va shifokorlar AQShdagi turli ilmiy – ta’lim dasturlarida tahsil olganliklarini ham takidlاب o‘tishdi.

O‘zbekiston va Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘rtasida xalq diplomatiyasini rivojlantirishda ilmiy hamkorlik muhim o‘rin egallaydi. Mustaqillik yillaridan boshlab, ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar faqat siyosiy va iqtisodiy sohalar bilangina cheklanib qolmay, ilm-fan, ta’lim va madaniyat yo‘nalishlarida ham chuqurlashgan ko‘p qirrali hamkorlik shaklida rivojlanib bormoqda. Bu jarayonda professor-o‘qituvchilar, talabalar, mustaqil tadqiqotchilar va nodavlat tashkilotlar

o‘rtasidagi almashinuv dasturlari, seminar va anjumanlar, grant loyihalari hamda tarjimonlik faoliyati orqali ilmiy muloqotning yangi bosqichlari vujudga keldi.

Xususan, ACCELS, MUSKIE, USAID, SRDF kabi xalqaro ta’lim va ilmiy fondlar tomonidan amalga oshirilgan dasturlar nafaqat o‘zbekistonlik yoshlar va olimlarga AQShning yetakchi ilmiy muassasalarida tahsil olish imkonini yaratdi, balki milliy ilm-fanning xalqaro maydonga chiqishida ham muhim omil bo‘ldi. Bundan tashqari, ikki mamlakat olimlari o‘rtasidagi qo‘shma ilmiy tadqiqotlar, tajriba almashinuvi, hamda tarix, tilshunoslik va madaniyatshunoslik yo‘nalishlarida olib borilgan tahliliy ishlar xalqlararo o‘zaro anglashuv va do‘stlik rishtalarining mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Xalq diplomatiyasining samarali vositalaridan biri sifatida ilmiy hamkorlik siyosiy holatlardan qat’i nazar, doimiy muloqotni ta’minlab, barqaror va barobar rivojlanish tamoyillarini qaror toptirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu jihatdan, O‘zbekiston va AQSh o‘rtasidagi ilmiy aloqalarni yanada kengaytirish, dolzarb global muammolarni hal etish yo‘lida qo‘shma tashabbuslarni kuchaytirish bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan masala bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Щукурзода М., «Хронология Американо-узбекских отношений. 1992-2012». Ташкент: Niso-Poligraf. 2012
2. Шукурзода М., «Сотрудничество США-Узбекистан. В фактах и цифрах 1992-2016» Ташкент: «Niso-Poligraf». 2016.
3. Материалы международной конференции: «Евреи Средней Азии: вопросы истории и культуры». Инф. агентство «Jahon», МИД РУз.
4. Материалы Международной конференции «Межрелигиозное согласие и межкультурный диалог опыт Узбекистана». Инф. агентство «jahon», МИД Руз. 10.10.2007.
5. Материалы Общества дружбы «Узбекистан — Америка», 1999-2019
6. M.Shukurzoda., “Amerikalik o‘zbeklar” Toshkent – 2001